



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
davlat va huquq asoslari
fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yiliga 10-sinflar uchun
I yarim yillik

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 10-sinf davlat va huquq asoslari fanidan
I yarim yillik taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Jamiyatda inson huquqlarining o‘rni. (Loyiha ishining baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	Jamiyatda inson huquqlarining o‘rni	1		
3.	Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi	1		
4.	Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi	1		
5.	Inson huquqlari va huquq ustuvorligi	1		
6.	Inson huquqlari va ijtimoiy himoya	1		
7.	Inson huquqlari bo‘yicha milliy qonunchilik	1		
8.	Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar	1		
9.	1-Nazorat ishi	1		
10.	Jamiyatda oilaning o‘rni	1		
11.	Nikoh, uni tuzish va tugatish asoslari	1		
12.	Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi	1		
13.	Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari	1		
14.	Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari	1		
15.	2-Nazorat ishi	1		
16.	Ijodiy faoliyat.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jamiyatda inson huquqlarining o‘rni. (Loyiha ishining baholash mezonini e‘lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta‘limiy: o‘quchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, kundalik hayotda huquqiy vaziyatlarni hal qila olishga, huquq normalarini hayotda mustaqil qo‘llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o‘rgatish, mustaqil o‘qish, izlanish, tarixiy, ma‘naviy, huquqiy manbalarni o‘rganish asosida to‘laqonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo‘lish, mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo‘lishiga, o‘zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish.

Rivojlantiruvchi: Mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiyasi:

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

o‘rganilgan mavzuga oid umum tomonidan qabul qilingan atamalarning mazmunini bilish.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

Mavjud axborot manbalaridan foydalana olish;

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

“Jamiyat”, “shaxs” va “inson huquqlari” tushunchasi. Inson manfaati va jamiyat manfaatining uyg‘unligi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – inson huquqlari kafolati. Kundalik turmushda “jamiyatimizda ro‘y berayotgan voqealar”, “farovon jamiyat qurish”, “jamiyatimizning ma‘naviy ahvoli” kabi jumalarni juda ko‘p eshitgansiz.

Xo'sh, jamiyat nima o'zi va uning mazkur bobdagi inson huquqlariga qanday aloqasi bor? "Jamiyat" tushunchasiga juda ko'plab ta'riflar berilgan. Chunki u juda ham keng va mavhum tushuncha. Shunday bo'lsa-da, hozircha jamiyat deganda "ma'lum bir hududda yashovchi, qadriyatlari, ular amal qiladigan qoidalar va an'analari o'xshash bo'lgan hamda o'zaro ehtiyoj va manfaatlari yo'lida birlashgan insonlar guruhi" tushunilishini yodingizda saqlab qoling. Demak, ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, "jamiyat" tushunchasini tushunishda ikkita muhim belgini esdan chiqarmasligimiz lozim ekan. Birinchisi – unda "ko'plab insonlarning mavjud bo'lishi" va ikkinchisi – "insonlarning ma'lum bir umumiy xususiyatga asoslanib birlashgani va yashayotgani". Mana shu ikki belgi jamiyat ta'rifining asosini tashkil qiladi. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, jamiyat shunchaki insonlar guruhi emas. Masalan, sizning oilangiz va yoningizdagi qo'shningiz birgalikda jamiyat bo'lib qolmaysizlar.

Yuqoridagi ta'rifdan ham ko'rinib turibdiki, jamiyat insonlarning katta bir guruhi ekan. Demak, jamiyatni kimlar tashkil etadi, deyilsa, albatta, insonlar, deb javob beriladi. Mana shu insonlar, ya'ni jamiyatdagi shaxslar o'zlari yashayotgan hududda turli vazifalarni bajaradilar. Masalan, kimdir shifokor, yana kimdir harbiy va yana kimdir dehqon sifatida mana shu jamiyatda o'z funksiyasini bajaradi. Ammo shaxslarning nafaqat bajaradigan vazifalari, balki ularning tana tuzilishlari, qarashlari, tillari, malaka hamda bilimlari, dinlari va boshqa xususiyatlari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda ham turli din vakillari, turli tillarda so'zlashuvchi millatlar va turli bilim hamda malakaga ega bo'lgan shaxslar istiqomat qiladilar. Mana shu kichik guruhlar birgalikda yirik bir jamiyatni tashkil etadi. Bu bugun siz va biz yashab turgan jamiyat bo'lib, unda barchamiz bir-birimizga turli xildagi xizmatlarni ko'rsatamiz va birgalikda farovon jamiyat qurish uchun intilamiz.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Sizningcha, inson jamiyatdan ajralgan holda yashay oladimi?
2. Inson huquqlari deganda qanday huquqlarni tushunasiz?
3. Biror shaxsning manfaati hamda jamiyat (omma) manfaati bir-biriga zid kelib qolganda nima qilish kerak deb hisoblaysiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jamiyatda inson huquqlarining o‘rni

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, kundalik hayotda huquqiy vaziyatlarni hal qila olishga, huquq normalarini hayotda mustaqil qo‘llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o‘rgatish, mustaqil o‘qish, izlanish, tarixiy, ma’naviy, huquqiy manbalarni o‘rganish asosida to‘laqonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo‘lish, mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo‘lishiga, o‘zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish.

Rivojlantiruvchi: Mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘zini –o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish;

ijtimoiy sohada qabul qilinayotgan mamlakat qonunlaridan xabardor bo‘lib borish;

fanga oid bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

o‘z hatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatarga ega bo‘lish; fanga oid bilimlarini boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan bog‘lay olish;

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda

foydalanish kompetensiyasi: kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Demak, ba’zida insonlarning shaxsiy manfaatlari, ba’zida esa omma hamda jamiyat manfaatlari biri ikkinchisidan yuqori o‘ringa qo‘yilar ekan. Ular o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga kelganda esa uni adolat bilan hal etishgina bizni farovon jamiyat sari yetaklashi mumkin. Ha, aynan adolat bilan hal etilgandagina biz inson manfaatlari hamda jamiyat manfaatlarning uyg‘unlashuviga erishamiz. Shuning uchun ham konstitutsiyamiz muqaddimasida har birimiz adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglashimiz muhimligi ta’kidlangan.

Zamonaviy davlatlarning deyarli barchasida inson huquqlari konstitutsiyaning yuragini tashkil etadi, deb ayta olamiz. Zamonaviy konstitutsiyalarning asosiy vazifalaridan biri ham aynan inson huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining bosh qomusi hisoblanmish konstitutsiyamiz ham xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan inson huquqlarini o‘zida aks ettiradi va ularni juda ham yuqori darajada himoya qiladi. Konstitutsiyaning butun boshli II bo‘limi aynan inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgani ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Ushbu bobda faqatgina eng asosiy moddalargagina to‘xtalib o‘tamiz. Avvalo, Konstitutsiyaning 19-moddasida O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekani, shuningdek, ular jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy 2023-yil 30-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi referendumida arafasida o‘tkazilgan “Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o‘zimizniki” shiori ostidagi targ‘ibot tadbiridan lavha. kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mav qeyidan qat’i nazar, qonun oldida teng ekani ta’kidlanadi. Bu bilan Konstitutsiyamiz aso siy inson huquqlaridan biri bo‘lgan tenglik va kamsitilmaslik huqu qini himoya qiladi. Inson huquqlariga doir yana bir eng muhim modda 25-modda bo‘lib, unda inson ning yashash huquqi haqida so‘z ketadi. Yashash huquqi insonning dunyoga kelgandan to vafot etgunga qadar ajralmas huquqi bo‘lib, undan mahrum qilishga hech kimning haqqi yo‘q.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Har doim jamiyatning umumiy manfaatlarini insonlarning shaxsiy manfaatlaridan ustun turishi kerak degan fikrdamisiz yoki buning aksimi?

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqlari qanday asosiy qoidalar bilan mustahkamlab qo‘yilgan?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat huquq fanidan 10-sinf I yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**